



AXBOROTLASHGAN TA'LIM SHAROITIDA OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA INTERFAOL DARSLARNI TASHKIL ETISH TEXNOLOGIYALARI.

Omonova Mukhlisa Do'stanzarovna

Alfraganus University Department of Pedagogy and Psychology, etc. associate professor

muxlisa.alfraganus@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0005-8766-5332>

Karatayeva Luiza Uktamovna

Alfraganus universiteti, Pedagogika va psixologiya mutaxassisligi
2-kurs magistrant

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15266214>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 18- Aprel 2025 yil

Ma'qullandi: 20- Aprel 2025 yil

Nashr qilindi: 23- Aprel 2025 yil

KEY WORDS

zamonaviy dars, axborotlashgan ta'lim, interfaol dars, texnologiya.

ABSTRACT

Mazkur maqolada respublikamizda ta'lim sohasida amalga oshiralayotgan islohotlar natijasi o'laroq, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda interfaol darslarni tashkil etish texnologiyalari bayon qilingan. Ta'lim jarayonida axborot - kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanishning afzalliklari hamda ularni o'quvchilarning faolligini oshirishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, axborotlashgan ta'lim sharoitida ta'lim samaradorligini oshirishga oid tavsiyalar beriladi.

Bugungi kunda kompyuter va axborot texnologiyalarining rivojlanishi, respublikamizning barcha jabhalarini qamrab olmoqda. Mamlakatimizni rivojlantirish va turmush sharoitini yaxshilashda malakali mutaxassis kadrlarni tayyorlash asosiy omil sifatida qaratilmoqda. Ta'lim jarayoniga qo'yilayotgan asosiy vazifalardan biri bugungi kunda o'quvchilarni jadal su'atlar bilan rivojlanayotgan axborot-ta'lim muhiti sharoitida mustaqil fikrlashga, kreativ fikrlashga hamda o'z ishlariga nisbatan tanqidiy fikrlashga, axborot oqimidan foydalanishni o'rgatishdir. Ta'lim jarayonida an'anaviy sinf-dars tizimidan qochib zamonaviy darslarni tashkil etish darsda o'qituvchi bilan birgalikda o'quvchilarning faoligini birgalikda ta'minlashga xizmat qiladi.

Bugungi kun o'qituvchisi kompyuter va AKT hamda Internet tarmog'i imkoniyatlaridan keng foydalana bilishi zarur. Ta'limiy dasturlar, raqamli ta'limiy resurslar hamda axborot manbalaridan foydalanish, zarur axborotlarni topish va ta'lim masalalarini hal etishga muvofiqlarini tanlab ola bilish, axborot muhiti vositalaridan, shuningdek, skaner, raqamli fotosuratga olish qurilmasi va videokamera, raqamli mikroskop, proyeksion uskunalardan foydalanishni bilishlari va ta'limga tadbiiq eta olishlari zarur.

Hozirgi darslarda interfaol metodlardan foydalanish talab etilayotgan ekan, o'quvchini boshlang'ich sinfdan o'z fikrini to'liq ifodalashga, o'z yo'li va maqsadini mustaqil belgilashga, zimmasidagi ma'suliyatni his etishga o'rgatiladi. Interfaol metodlardan foydalanish orqali dars saviyasi yaxshilanadi, o'zlashtirishda qiynalayotgan bolalar faollashadi, dunyoqarashi va tafakkuri boyib boradi.

Axborotlashgan ta'lim sharoiti— bu kompyuter texnikasi va axborot texnologiyalaridan dars jarayonida foydalanish, ta'limda yangi sifat ko'rsatkichiga erishishdir. Bunda interfaol

darslarni tashkil etish yaxshi samara beradi.

Interfaol darslarni tashkil etishda yangilikka intilish kerak. Bunda axborot va raqamli texnologiyalardan foydalanish talab etiladi.

Zamonaviy darslarning eng qiziqarli va jonlisi bu-pedagogik o'yinlarni tashkil etishdir. Bu talabalar uchun eng tushunarli va o'zlariga yaqin jarayondir. Darslar interfaol usullarda tashkil qilinganda talabalar o'zini erkin tutadi. Bilimini namoyon etgisi keladi. Natijada ularda o'ziga nisbatan ishonch, qat'iyat paydo bo'ladi. Fikrni asoslashga odatlanadi.

Interfaol darslarni tashkil etish texnologiyalari

Interfaol ta'lim texnologiyalari talabalarning dars jarayonida faol ishtirok etishlarini ta'minlaydi va ularning bilimlarni mustahkamlashiga ko'maklashadi. Quyidagi usullar interfaol darslarni tashkil etishda keng qo'llaniladi:

- **Klasster usuli** - talabalarni kichik guruhlariga ajratib, mavzu bo'yicha fikr almashish va muammolarni hal qilishga yo'naltirish.

- **Blits-so'rov** - talabalarning tezkor fikrlash qobiliyatini rivojlantirish maqsadida tezkor savol-javob tizimini joriy etish.

- **Aqliy hujum** - talabalarni erkin fikrlashga undaydigan muhokama jarayoni.

Ta'lim jarayonini axborotlashtirishning afzalliklari:

- ta'lim jarayonida kompyuter va axborot texnologiyalarning qo'llanilishi natijasida muhim yutuqlarga erishish mumkin, ya'ni:

- kompyuter orgqali o'quvchiga yetkaziladigan materialni zarurat bo'isa, qayta -qayta chiqarish va takrorlash imkon yatlari bo'ladi;

- Har bir o'qituvchinig o'ziga xos darsni tushuntirish uslubiyoti mavjud.

- Kompyuter va axborot texnologiyalaridan foydalanish ular ichidagi samarasiz uslubiyotlarga barham beradi.

- Yangicha texnologiyalar tig'iz bilimlarni o'zida ifoda etib, unda sxemalar, rasmlar, jadvallar, grafik va diogrammalarga keng o'rin beriladi. Bu narsa yoshlar obrazli xotirasini yanada jonlantiradi va eslab qolish qobiliyatini kuchaytiradi.

- Ushbu ma'lumotlarni tashqi xotira vositalariga yozib olish va xohlagan vaqtda ulardan foydalanish mumkin.

Xulosa va tavsiyalar

Axborotlashgan ta'lim sharoitida interfaol darslarni tashkil etish talabalarning faolligini oshirish bilan birga ularning mustaqil fikrlash va tahliliy yondashuv qobiliyatlarini rivojlantiradi. Shu sababdan oliy ta'lim muassasalarida axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishni joriy qilish o'qituvchi va talaba faoliyatida bir qancha yengilliklar olib keladi. Ta'lim muassasalari o'qituvchi xodimlari uchun AKT vositalaridan foydalanish bo'yicha kurslar va mahurat darslarini tashkil etish, o'qituvchilar bilan bir qatorda talabalarga ham axborot olamining afzalliklarini namoyish etish ta'limda yangi, samarador loyihalarni amalga oshirishga turtki bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Okhunov, M., & Minamatov, Y. (2021). Application of Innovative Projects in Information Systems. European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630), 11, 167 168.
2. Minamatov, Y. E. U. (2021). APPLICATION OF MODULAR TEACHING TECHNOLOGY IN TECHNOLOGY. Scientific progress, 2(8), 911-913.
3. Минаматов, Ю. (2021). УМНЫЕ УСТРОЙСТВА И ПРОЦЕССЫ В ИХ ПРАКТИЧЕСКОЙ

ЭКСПЛУАТАЦИИ. Eurasian Journal of Academic Research, 1(9), 875-879.

4. Avazjon o'g'li, V. D., & Esonali o'g'li, M. Y. (2022). Use and Importance of Three Dimensional Images in Fields. Journal of Ethics and Diversity in International Communication, 2(2), 1-4.

5. A.Muhamadiyev. Elektron resurslar ta'limning axborot ta'minoti sifatida. // Kutubxona resurslaridan faol va ijodiy foydalanish muammolari. Betger o'qishlari – 2004 ilmiy maqolalar to'plami. 2005 g.

6. Абдусаматова, Ш. С. (2021). ЭМОЦИОНАЛЬНЫЙ ДИСТРЕСС, УГРОЗА СОБСТВЕННОМУ «Я», КАК ОБЯЗАТЕЛЬНЫЙ КОМПОНЕНТ ЖИЗНИ ЧЕЛОВЕКА. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 1(4), 239-247.

7. Абдусаматова, Ш. С., & Султанкулова, Г. Ф. (2022). ЭФФЕКТИВНОСТЬ ТРЕНИНГА ОБРАЗНОЙ САМОРЕГУЛЯЦИИ. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2(1), 364-368

8. Абдусаматова, Ш. С. (2021). Психология семейных отношений с основами семейного консультирования. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 1(3), 225-229.

9. Abdurasulov Jahongirmirzo Ozodqulov Olimjon Bahodir o'g'li Choriyev Ilhom Ro'ziboyevich. (2022). SPECIFIC ASPECTS OF PSYCHOLOGICAL TRAINING OF FUTURE MILITARY PERSONNEL. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6803485>

10. Abdurasulov J. (2024). HARBIY PEDAGOGIKANING BOSHQA FANLAR BILAN ALOQASI. Молодые ученые, 2(6), 48-52. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/yo/article/view/28164>

11. Abdurasulov J., & Pardabayeva, M. (2024). MUSOBAQADAN OLDIN SPORTCHILARNI PSIXOLOGIK TAYYORLASH. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 4(6 Part 2), 73-76. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/ejsspc/article/view/34717>

12. Турсунов Абдумомин Abdurasulov Jahongirmirzo Ozodqulov Olimjon Bahodir o'g'li. (2022). THE USE OF PEDAGOGICAL AND INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN PRE-SERVICE INITIAL TRAINING AND THEIR FEATURES. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6751859>